



**O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI
KREDITLASHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI**

Raximov Shoxrux Olimjonovich

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti,

E-mail: shoxrux1440@mail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis O'zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlashning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga bag'ishlangan. Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, yangi ish o'rinlari yaratishda hamda aholi turmush darajasini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu sababli, banklarning oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni va roli ortib bormoqda. Tadqiqotda mamlakat bank tizimi tomonidan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan kreditlarning hajmi, ularning sohalar bo'yicha taqsimlanishi, shuningdek, amaldagi imtiyozli kreditlash mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilingan. Bundan tashqari, kreditlash jarayonida uchrayotgan muammolar, jumladan, garov ta'minoti yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi, kredit olish jarayonlarining murakkabligi ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oilaviy tadbirkorlik, kreditlash, tijorat banklari, imtiyozli kreditlar, mikrokreditlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, garov ta'minoti, kredit risklari, foiz stavkalari, kredit siyosati, innovatsion moliyalashtirish, iqtisodiy o'sish.

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish strategiyasida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, uni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadigan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Oilaviy tadbirkorlik nafaqat iqtisodiyotning muhim bo'g'ini, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi ish



o'rinlari yaratish, daromadlarni oshirish va aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, uni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va institutsional mexanizmlari jadal shakllantirilib kelmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayoni kengayib borayotgani va uning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilayotgani dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri hisoblanadi. Aynan banklar orqali ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohalariga zarur moliyaviy resurslar yo'naltiriladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlashning hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlik mamlakat yalpi ichki mahsulotida ham sezilarli ulushga ega bo'lib, uning rivojlanishi aholining moliyaviy mustaqilligi va ijtimoiy farovonligi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bank kreditlari iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda strategik omil sifatida ko'rilmogda¹.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, davlat tomonidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning huquqiy asosini mustahkamlamoqda. Hozirgi paytga qadar Prezidentimiz tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi qaror va farmonlar qabul qilindi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini

¹ Djunaitov G'.N., Azimov B.F. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati // Science and Education Scientific Journal. January 2023, Volume 4 Issue 1. ISSN 2181-0842.



moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila-tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-sonli Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5041-sonli Qarori.

Bu qabul qilingan huquqiy asoslar oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyaviy, tashkiliy va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, PQ-3777-sonli qaror bilan boshlangan "Har bir oila – tadbirkor" dasturi oilalarning biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashda burilish nuqtasiga aylandi. Keyingi yillarda qabul qilingan PQ-55 va PQ-5041 qarorlari ushbu dasturlarni takomillashtirish, yangi moliyaviy vositalar yaratish va kreditlash tizimini qulaylashtirishga qaratilgan. Eng so'nggi PQ-149 qarori esa tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengroq moliyalashtirish orqali aholining daromadlarini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa, o'z navbatida, bank sektorining iqtisodiy o'sishdagi o'rnini mustahkamlab, aholining bandligi hamda daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni kreditlash bo'yicha davlat dasturlari orqali yangi ish o'rinlari yaratish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirish bo'yicha aniq natijalarga erishilmoqda².

² Bayzakova D.F. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning rivojlantirilishi // Экономика и социум. №2(117)-1. 2024. С. 215–217.



Statistik ma'lumotlar ham bu jarayonni yaqqol ko'rsatadi. Masalan, 2023-yilda tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kreditlar miqdori 15,2 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 18,7 trillion so'mga yetgan. Shuningdek, 2022–2024-yillar davomida ushbu sohada kreditlash hajmi yiliga o'rtacha 18–20 foizga oshib borgan. Bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, imtiyozli kredit dasturlarining kengaytirilishi va bank xizmatlarining hududlarda faol joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Oilaviy tadbirkorlikni kreditlash bo'yicha ajratilgan mablag'larning asosiy qismi savdo, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik yo'nalishlariga to'g'ri kelmoqda. Bu esa iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuviga, shuningdek, oilalarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qilmoqda. Quyidagi jadvalda O'zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlash ko'rsatkichlari yillik kesimda ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

O'zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlash ko'rsatkichlari³

Yil	Ajratilgan kreditlar hajmi (trln so'm)	Yillik o'sish (%)	Asosiy yo'nalishlar (ulush, %)
2020	9,8	—	Savdo – 35, Qishloq xo'jaligi – 30, Xizmatlar – 25, Hunarmandchilik – 10
2021	11,4	16,3	Savdo – 33, Qishloq xo'jaligi – 32, Xizmatlar – 25, Hunarmandchilik – 10
2022	12,9	13,1	Savdo – 32, Qishloq xo'jaligi – 33,

³ Muallif tomonidan tayyorlandi



			Xizmatlar – 25, Hunarmandchilik – 10
2023	15,2	17,8	Savdo – 31, Qishloq xo'jaligi – 34, Xizmatlar – 25, Hunarmandchilik – 10
2024	18,7	23,0	Savdo – 30, Qishloq xo'jaligi – 35, Xizmatlar – 25, Hunarmandchilik – 10

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlash hajmi yildan-yilga muntazam oshib bormoqda. 2020-yilda 9,8 trillion so'mni tashkil etgan kredit hajmi 2024-yilga kelib 18,7 trillion so'mga yetgan. Bu esa to'rt yil davomida deyarli ikki baravar ko'payishni anglatadi. O'sish sur'atlari yilma-yil farq qilgan bo'lsada, umumiy tendensiya ijobiy xarakterga ega. Jumladan, 2021-yilda 16,3 foiz, 2022-yilda 13,1 foiz, 2023-yilda 17,8 foiz va 2024-yilda 23 foizlik o'sish qayd etilgan. Bu jarayon davlatning oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy choralari samaradorligini ko'rsatadi.

Soha kesimida tahlil qilinganda esa, qishloq xo'jaligi yo'nalishining ulushi yildan-yilga ortib borayotgani yaqqol seziladi. 2020-yilda 30 foizni tashkil etgan bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 35 foizgacha yetgan. Aksincha, savdo sohasining ulushi asta-sekin kamayib, 35 foizdan 30 foizgacha pasaygan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining agrar sohasiga ko'proq e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi va hunarmandchilik ulushi deyarli o'zgarmasdan, barqaror darajada saqlanib qolgan.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, bank tizimi oilaviy tadbirkorlikni kreditlash orqali iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga resurslarni yo'naltirib,



aholining bandligini ta'minlash, hududiy rivojlanish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda sezilarli rol o'ynamoqda. Bu tendensiyalar kelgusida ham davom etishi, yangi moliyaviy mahsulotlar va innovatsion kreditlash mexanizmlarining joriy qilinishi bilan yanada kuchayishi kutiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlashning rivojlanish tendensiyalarini bir necha asosiy yo'nalishlar orqali ko'rish mumkin. Birinchidan, kredit mahsulotlarining turlari va shartlari tobora diversifikatsiya qilinmoqda. Ikkinchidan, kreditlash jarayoniga raqamli texnologiyalar keng joriy qilinmoqda, natijada mijozlar uchun qulayliklar yaratilmoqda. Uchinchi yo'nalish sifatida esa kreditlashda hududiy farqlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish mumkin. To'rtinchidan, oilaviy tadbirkorlikni kreditlashda ijtimoiy guruhlar — ayollar, yoshlar, nogironligi bo'lgan shaxslarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bank kreditlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaralarni ham beradi. Ularning yordamida ko'plab oilalarda bandlik ta'minlanadi, uy-joy sharoitlari yaxshilanadi, oilaviy daromadlar ko'payadi. Shu bilan birga, oilaviy tadbirkorlik orqali hududlarda iqtisodiy faollik oshadi, mahalliy ishlab chiqarish rivojlanadi va ichki bozor mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlanadi. Bu esa o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oilaviy tadbirkorlikni kreditlash tizimini yanada takomillashtirish mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada tijorat banklari oldida bir qator vazifalar turibdi. Avvalo, kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, moliyaviy texnologiyalarni keng qo'llash, risklarni samarali boshqarish va eng asosiysi, kreditlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash zarur.



Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur tezisning mavzusi — “O‘zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlashning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari” — dolzarb bo‘lib, u orqali nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki kelgusida bu yo‘nalishni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berish mumkin. Tadqiqot natijalari bank-moliya tizimi, davlat organlari hamda oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston bank tizimida oilaviy tadbirkorlikni kreditlash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar ushbu sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Biroq, mavjud amaliyotda ayrim muammolar, jumladan, kredit olish shartlarining murakkabligi, garov ta‘minotining yetishmasligi va ayrim hollarda moliyaviy savodxonlikning pastligi sezilmoqda. Shu sababli banklar kreditlash mexanizmlarini yanada soddalashtirishi, oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozli sharoitlar yaratishi hamda moliyaviy maslahat xizmatlarini kengaytirishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa oilaviy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o‘rinishga munosib hissa qo‘shishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-327sonli Qonuni
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-149-sonli Qarori
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-55-sonli Qarori
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-sonli Qarori



5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5041-sonli Qarori

6.Djunaitov G.N., Azimov B.F. Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati // Science and Education Scientific Journal. January 2023, Volume 4 Issue 1. ISSN 2181-0842.

7.Bayzakova D.F. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikning rivojlantirilishi // Экономика и социум. №2(117)-1. 2024. С. 215–217.

8.Asrorov A.I. Oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy iqtisodiy asoslarini takomillashtirish // Экономика и социум. 2023. №6(109)-1. С. 59–62.

9.<http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti

10. <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki sayti